



ИСТИФОДАИ ОҚИЛОНАИ САРВАТҲОИ
ОБИ ОБҲАВЗАҲОИ АМУДАРЁ,
СИРДАРЁ: МУШКИЛОТИ ГЕОЭКОЛОГИ
РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОДНЫХ
РЕСУРСОВ БАСЕЙНОВ РЕК АМУДАРЬЯ И
СЫРДАРЬЯ: ГЕОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ
RATIONAL USAGE OF WATER RESOURCES
OF THE AMUDARYA AND SYRDARYA RIVERS
BASINS: GEOECOLOGICAL PROBLEMS

ХУҶАНД – 2025

**ВАЗОРАТИ МАОРИФ ВА ИЛМИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН
МУАССИСАИ ДАВЛАТИИ ТАЪЛИМИИ
«ДОНИШГОҲИ ДАВЛАТИИ ХУЧАНД БА НОМИ
АКАДЕМИК БОБОҶОН ҒАФУРОВ»**



**ИСТИФОДАИ ОҚИЛОНИИ САРВАТҲОИ ОБИ
ОБҲАВЗАҲОИ АМУДАРЁ, СИРДАРЁ:
МУШКИЛОТИ ГЕОЭКОЛОГИЯ**

**(маводи Конференсияи байналмилалӣ илмӣ-назариявӣ,
ш. Хучанд, 29-30 апрели соли 2025)**

**РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ
БАССЕЙНОВ РЕК АМУДАРЬЯ И СЫРДАРЬЯ:
ГЕОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ**

**(Материалы международной научно-теоретической конференции,
г. Худжанд, 29-30 апреля 2025г.)**

**RATIONAL USAGE OF WATER RESOURCES OF THE AMUDARYA
AND SYRDARYA RIVERS BASINS: GEOECOLOGICAL PROBLEMS
(Materials of the international scientifico-theoretical conference,
Khujand, 29-30 April, 2025)**

ХУЧАНД – 2025

**SUV OMBORLARINING LANDSHAFT-EKOLOGIK HOLATGA TA'SIRINI
TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**

Kalit soʻzlar: *landshaft, alluvial, suv ombor, ekologik holat, irrigatsion inshoot, arid hudud, avtomorf, gidrologik rejim.*

Ushbu maqolada suv omborlarining landshaft-ekologik holatga ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar hamda To'dako'l va Quyimozor suv omborlari atrofidagi landshaftlarni geoekologik holati, o'zgarish darajasini aniqlash va baholash to'g'risida umumiy ma'lumotlar yoritilgan.

Ключевые слова: *ландшафт, аллювиальный, водохранилище, экологическое состояние, ирригационная структура, засушливая территория, автоморфный, гидрологический режим.*

В этой статье освещаются исследования влияния водохранилищ на ландшафтно-экологическую обстановку, а также общая информация о геоэкологическом состоянии, определении степени изменения и оценке ландшафтов вокруг водохранилищ Тудакуль – Куйимазар

Keywords: *landscape, alluvial, reservoir, ecological state, irrigation structure, arid region, automorphic, hydrological regime.*

This article covers research on the impact of reservoirs on landscape-ecological condition and general information on the geoecological condition, determination and assessment of the degree of change in the landscapes around Tudakul – Kuuimazar reservoirs.

Tarixiy jarayonlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, suv obyektlari insoniyat taraqqiyotida muhim rol o'ynab kelgan. Bir tomondan suv toshqinlari, qurg'oqchilik, daryolar, ko'llar va dengizlar rejimining o'zgarishi halokatlar va katta ijtimoiy-iqtisodiy zararlariga sabab bo'lgan bo'lsa, boshqa tomondan, suv obyektlari qishloq xo'jaligi, energetika, sanoat va iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishini ta'minlab kelmoqda. BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturida 17 ta «maqsad»lar berilgan bo'lib, shuning 6-maqsadida belgilangan «Suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash va suvning ifloslanishini oldini olish [7]» ga qaratilgan vazifalar suv omborlarining irrigatsion inshootlar va landshaftlar bilan bog'liqligi hamda rekreatsion imkoniyatlari va ulardan foydalanish masalalarini, suv omborlariga tutash landshaftlar o'zgarishini tahlil qilishni, ekologik holatini baholash va ularni monitoring qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Hozirgi vaqtda tabiiy landshaftlar inson faoliyati natijasida shunday tashqi ta'sirga duch kelmoqdaki, bu o'z navbatida tabiiy geografiya va uning bir qismi bo'lgan landshaftshunoslik oldiga yangi-yangi ilmiy va amaliy muammolarni qo'ymoqda. Ularning ichida eng muhim va dolzarb hisoblanganlari landshaftlarning turli tashqi ta'sirlarga barqarorligini aniqlash, landshaftlarni xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida foydalanish nuqtayi nazaridan baholash, ularning inson ta'sirida o'zgarishini va bu o'zgarish qaysi yo'nalishda ro'y berishini oldindan aytib berish, ya'ni bashoratlash, o'zgartirilishi lozim bo'lgan landshaftlarni haqiqiy madaniy

landshaftlarga aylantirish va ularning samaradorligini oshirishning ilmiy asoslarini yaratish kabilardir.

Arid hududlarda landshaft-ekologik sharoitning shakllanishi, landshaft-ekologik holatning rivojlanishi va o'zgarishi muammosi bilan qator olimlar L.N.Babushkin, N.A.Kogay (1964), N.A.Gvozdeskiy (1965), N.A.Solnsev (1970), M.P.Petrov (1973), F.M.Milkov (1975), V.A.Kovda (1981), L.I.Kurakova (1983), I.P.Gerasimov (1985), V.M.Chupaxin (1987), A.G.Isachenko (1990), G.V.Geldiyeva (1992), V.A.Nikolayev (1992), A.G.Babayev, V.S.Zaletayev (1996) va boshqalar, mamlakatimizda A.A.Rafiqov (1976), L.A.Alibekov (1990), A.A.Abdulqosimov (1991), S.B.Abbasov (2007), X.Vaxobov (2003), Sh.S.Zokirov (1972), I.Xasanov (2007), N.R.Alimkulov (2008, 2024), K.M.Boymirzayev (1995, 2020), Q.S.Yarashev (2018, 2022) va boshqalar shug'ullangan. Landshaft-ekologik holatlarni tushunish tabiiy resurslarni boshqarish, atrof-muhitni uhofaza qilish va hududlarni barqaror rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi [5].

Biz tadqiqot ishida landshaftlarning ekologik holatini To'dako'l – Quyimozor suv omborlari tizimi misolida ko'rib chiqdik. To'dako'l – Quyimozor suv omborlari tabiiy geografik nuqtayi nazardan Quyi Zarafshon okrugi doirasida joylashgan, boshqacha qilib aytganda, Zarafshon tabiiy geografik okrugining janubi-sharqiy qismida joylashgan. Bu suv omborlari paydo bo'lishiga ko'ra, tabiiy botiqda hosil bo'lgan, ular antropogen ko'llar bo'lib hisoblanadi. Avval qayd etganimizdek: «Inson tomonidan bunyod etilgan landshaftlar ham, inson ta'siriga uchrab qaysidir bir komponenti, shu jumladan, o'simlik, hayvonot olami bilan birga tubdan o'zgargan (qayta qurilgan) tabiiy majmualarni ham antropogen landshaftlar, deb hisoblash mumkin» [3] Gidrotexnik qurilishlar sayyoramizning barcha qit'alarida amalga oshiriladi. Suv omborlari har qanday darajadagi gidrotexnik va suv xo'jaligi tizimlarining asosiy elementlari hisoblanadi, chunki ular suv resurslarini tartibga solish, gidrosferani jamiyat xohlagan yo'nalishda o'zgartirishga imkon beradi.

Suv omborlar atrofida tabiiy-antropogen omillar ta'sirida landshaftlarning o'zgarish jarayoni yuzaga keladi, bu ijobiy va salbiy holatlarni yuzaga keltiradi. (1-jadvalga qarang). To'dako'l va Quyimozor suv omborlarining atrof landshaftlarga ijobiy va salbiy ta'siri o'rganilganda, suv omborlarining mavjudligi, Buxoro, Navoiy viloyatining suv ta'minotini yaxshilash, ekoturistik imkoniyatlarini oshirish, yuqoriligi, baliqchilik xo'jaligining rivojlantirish, kabi ijobiy jihatlari bilan birga salbiy jihatlari ham xarakterli xususiyatga ega. Jumladan, suv sathining ko'tarilishi, botqoqlanish, tuproq sho'rlanishi, tabiiy geotizimlarning o'zgarishi, shuningdek, tuzli changlar xavfining yuqorillashishiga sabab bo'ladi. Bu kabi ijobiy, salbiy jihatlar suv ombori atrofi landshaftlarining jadallik bilan o'zgarishiga olib keladi.[2]

1-jadval

To'dako'l va Quyimozor suv omborlarining atrof landshaftlarga ijobiy va salbiy ta'siri

IJOBIY TA'SIR	SALBIY TA'SIR
---------------	---------------

1.	Buxoro, Navoiy viloyatlarining suv ta'minotini yaxshilash	Yer osti suv sathining ko'tarilishiga ta'siri; suv omborga tutash hududlarda yer osti suvlarining minerallashish darajasining yuqori bo'lishiga va tuproqning ikkilamchi sho'rlanishiga ta'siri ko'rsatadi.
2.	Suv omborlarda hayvonlar, o'simliklar, qushlar, baliqlarning noyob turining yashashi va ko'payishi	Suv sathining ko'tarilishi, botqoqlanish, tuproq sho'rlanishi, katta maydonlarda tabiiy geotizimlar faoliyatini izdan chiqqishiga olib keladi.
3.	Ekoturistik imkoniyatlarning oshishi	Suv omborining kollektor drenaj suvlari hisobiga to'yinishi, suv ombor suvining sifat ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi va baliq turlarining kamayish xavfini oshiradi.
4.	Baliqchilik xo'jaliklarining rivojlanishi	Cho'l yaylovlaridan noto'g'ri foydalanish
5.	Rekreatsion imkoniyatining ortishi	Suv sathining ko'tarilishi, qumli cho'llarni egallayotganligi, tuzli changlar xavfining yuqoriligi.
6.	Suv transportidan foydalanish	Suv omborlariga yondosh yerlarda mavjud bo'lgan yalang, tashlandiq yerlar va chag'il konlarining ayrim qismlari chiqindi-axlatxonalarga aylantirilganligi.
7.	Cho'l sharoitida yangi yerlarni sug'orma dehqonchilik maqsadlarida o'zlashtirishga imkon beradi.	Yaylovlarning qisqarishi hisobiga suv omborga tutash landshaftlarda degradatsiya va cho'llanishning yuqoriligi.

(Jadval muallif tomonidan tuzilgan)

Yuqoridagi ma'lumotlarni umumlashtiradigan bo'lsak, suv ombor ta'sirida yon atrof landshaftlarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi komponentlar yer osti suvlari ko'tarilishi va uning oqibatida avtomorf sharoitida rivojlanib kelgan landshaftlar gidromorf yoki yarim gidromorf sharoitga o'tadi. Avtomorf sharoitda mavjud bo'lgan landshaftlarning yarim gidromorf yoki gidromorf sharoitga o'tishi ko'proq suv omborlar sohillariga yaqin joylashgan mustahkamlangan va yarim mustahkamlangan eol qumli cho'l landshaftlarda kuzatiladi. Shu bilan bir qatorda, atmosferada bug'lanishning oshishi, yer osti suvlarining minerallashish darajasini o'zgarishi, o'simliklarning vegetatsiyasining o'zgarishiga olib keladi.

Suv ombori to'g'onlar yordamida suvni yig'ish va saqlash uchun quriladigan sun'iy suv havzasi hisoblanadi. Adabiyotlarda yozilishicha, daryolardagi suv miqdori yil davomida mavsumdan mavsumga va u yildan bu yilga o'zgarib turadi. Yer yuzidagi, ayniqsa, O'rta Osiyo kabi arid iqlimli hududlardagi ba'zi bir daryo va soylarning suv miqdori yil davomida shu qadar notekis va noqulay taqsimlanganki, oqibatda milliard-milliard metr kub suv xalq xo'jaligiga hech qanday foyda keltirmasdan behuda oqib ketadi. Ayrim paytlarda, masalan, toshqin va to'linsuv davrlarida to'lib-toshib oqib, katta zarar ham keltiradi. O'lkamiz sharoitida, qishloq xo'jaligida suvga bo'lgan talab ortgan mavsumlarda esa bunday daryo va soylardagi suv keskin kamayib ketadi, ayrim hollarda butunlay qurib qoladi. Mana shunday

sharoitda daryo va soylar suvidan to'la va samarali foydalanish hamda toshqinlarning oldini olish maqsadida ularning oqim rejimini boshqarib turish zarur. Bu muammoni daryolarda sun'iy ko'llar – suv omborlari barpo etish yo'li bilan hal etish mumkin. Suv omborlari qurish o'lkamiz kabi qurg'oqchil hamda qishloq xo'jaligini sug'orishga asoslangan hududlarda, ayniqsa, zarurdir. Ko'pchilik suv omborlarini qurishda ekinzorlarni suv bilan ta'minlashdan tashqari, ulardan gidroenergetika, baliqchilikni rivojlantirish, yirik sanoat korxonalari va shaharlar suv ta'minotini yaxshilash maqsadida foydalanish ham nazarda tutiladi.[6]

Suv omborlarining tevarak-atrof landshaftlarining ekologik holatiga ta'siri masalasi xorijiy olimlardan L.S.Vendrov, A.B.Avakyan, A.M.Nikitin, K.N.Dyakonov, A.Y.Reteyum, S.V.Suslov, mahalliy olimlardan I.X.Abdullayev, V.Y.Chub, F.H.Hikmatov X.Shemuradov, E.I.Chembarisov, A.Raxmatullayev, Y.Q.Hayitov va boshqa bir qator olimlarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan.

S.L.Vendrov suv resurslaridan foydalanishning muammolari, yer usti suvlarini taqsimlashning hududiy xususiyatlari, suv omborlarining gidrologik rejimni o'zgartirishning salbiy va ijobiy tomonlarini asoslab bergan[4].

A.B.Avakyan suv omborlari har qanday darajadagi gidrotexnik va suv xo'jaligi tizimlarining asosiy, elementlari hisoblanadi, chunki ular suv resurslarini tartibga solish, gidrosferani jamiyat uchun kerakli yo'nalishda o'zgartirishga imkon beradi deb ta'rif bergan.

Suv omborlarini qurishining navbatdagi bosqichi XIX va XX asrlarning boshlarida, elektr energiyasidan keng foydalanish tufayli boshlangan. Barcha rivojlangan mamlakatlarda, keyin esa boshqa mamlakatlarda gidroelektrostansiyalar qurila boshlangan. Avvaliga ular tartibga solinmagan oqimdan foydalanish maqsadida qurilgan, lekin keyin elektr ta'minoti barqarorligini oshirish va elektr energiyasini ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun suv omborlari qurila boshlangan. Ularning qurilishi juda katta ko'lamga chiqdi, ularda gidroenergetika suv omborlari bilan bir qatorda sug'orish, sanoat va kommunal suv ta'minoti, suv toshqinini oldini olish (ayniqsa, AQSH, Hindiston, ba'zi Yevropa mamlakatlarida) uchun tobora ko'proq suv omborlari qurila boshlangan.

Suv omborlari qurilishi va ulardan foydalanish XX asrda ommaviy tus olib, planetar darajaga ko'tarildi. Bir tomondan, suv omborlari iqtisodiy rivojlanishning omillaridan biri bo'lsa (suvga bo'lgan ehtiyoj, energiya manbai, qishloq xo'jaligi, transport), ikkinchi tomondan, landshaft-ekologik omillaridan biriga aylanib, tabiatga salbiy ta'siri bilan ham namoyon bo'ldi (botqoqlanish, sho'rlanish, katta hududlarning suv tagida qolishi, kasalliklar, flora va faunaning o'zgarishi). Bu suv omborlarining geografiyasi, suv sig'imi, maydoni, shakli bilan bog'liq jarayondir.

Xulosa qilib aytganda quyidagi takliflarni keltirishni joiz topdik:

1.Landschaftning ekologik holatini baholash, landshaftni asrash tabiatni muhofaza qilish, resurslarni barqaror boshqarish va ekotizimlarni tiklashni o'z ichiga olgan keng qamrovli yondashuvni talab qiladi. Landschaft ekologik holatni, faqatgina landshaftni antropogen o'zgarishi emas, balki landshaftning antropogen-tabiiy, tabiiy omil ta'sirida o'zgarishi shaklida ham namoyon bo'ladi.

1. Suv omborlarini yaratishning asosiy maqsadi oqimni tartibga solishdan iborat. Bu, asosan, energetika, irrigatsiya, suv transporti, suv ta'minoti va suv toshqini bilan kurashishni ko'zlab amalga oshiriladi. Suv omborlarini qurish qurg'oqchil hamda qishloq xo'jaligini sug'orishga asoslangan hududlar uchun, ayniqsa, zarurligi bilan izohlanadi.

Adabiyot:

1. Аббасов С.Б. Қизилқум чўли ландшафтлари динамикаси ва экологияси. Монография. – Самарканд, 2019. – 174 б.

2. Abbasov S.B., Mirzoyeva I.E. Buxoro vohasida suv muammolarini bartaraf qilishda suv omborlarining ahamiyati. //O'zbekistonda iqlim o'zgarishi muammolarini ta'limga integratsiya qilish xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 2024. –B.103-108.

3. Авакян А.Б., Салтанкин В.П., Шарапов В.А. Водохранилища. М.:»Мысль» 1987.

4. Вендров С.Л., Дяконов К.П. Водохранилища и окружающая природная среда. – Москва: Изд-во «Наука», 1976.

5. Милков Ф.Н. Физическая география: учение о ландшафте и географическая зональность. – Воронеж: «Изд-во Воронеж. университета», 1986. –328 с.

6. Ҳикматов Ф.Ҳ. ва бошқалар Зарафшон дарёси ҳавзасининг гидрометеорологик шароити ва сув ресурслари. – Т.:»Фан ва технология», 2016.

7. 2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi // elektron dostup: <http://www.uz/undp/org/>.

Абдуллозода Ҳ.
(Ҷумҳурии Тоҷикистон)

САҲМИ ПРЕЗИДЕНТИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН ЭМОМАЛӢ РАҲМОН ОИДИ ҲИФЗИ ПИРЯХҲО

Вожаҳои калидӣ: *Пирях, тағйирёбии иқлим, партовҳои CO₂, обшавии пиряхҳо*

Роҳҳои пешгирии обшавии пиряхҳо: аз рӯи тадқиқотҳои олимон, ин манъ намудани тағйирёбии иқлим. Барои ин, мо бояд тағйирёбии иқлимро маҳдуд намуда, партовҳои CO₂ – ро то 45% кам карда, пеши роҳи обшавии пиряхҳоро гирем ва соли 2050 миқдори партовҳои CO₂ – ро ба 0 % расонем. Сарвари давлатамон Эмомалӣ Раҳмон ин зарурати ба амал омадаи обшавии пиряхҳоро ба назар гирифта пешиҳод кард, ки соли 2025 – ум «Соли байналмилалӣ ҳифзи пиряхҳо» эълон гардида, санаи Рӯзи ҷаҳонии ҳифзи пиряхҳо 21 март муайян карда шавад. Ҳаминтавр пешиҳоди мазкур аз тарафи тамоми давлатҳои ҷаҳон дар ҷаласаи СММ қабул гардид. Пешиҳоди дигари ҷониби Тоҷикистон таъсис додани Бунёди махсуси байналмилалӣ ҳифзи пиряхҳо буд.

Ключевые слова: *ледники, изменение климата, отходы CO₂, плавающие ледники Способы предотвращения ледников. По словам ученых, этот запрет*

Мундариҷа

ПЕШГУФТОР	3
РАҲИМОВ А.И. ҲИФЗИ ЗАХИРАҶОИ ОБУ ПИРЯХ ДАР ПАРТАВИ ҶАҲОНИИ ТАШАББУСҶОИ ПЕШВОИ МИЛЛАТ	5
АБДУРАҲИМОВ С.Я. МУАММОҶОИ ГИДРОЛОҒӢ ВА ГИДРОГЕОЛОГИИ ОБИ СОӢҶОИ ХУРДИ ҚАРОМАЗОР	8
МУРТАЗАЕВ У.И., МУҲАББАТОВ Х.М. ВОДНЫЕ РЕСУРСЫ - ОСНОВА СОТРУДНИЧЕСТВО СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ.....	10
АББАСОВ С.Б., АБДУРАИМОВА О.Б. ЗНАЧЕНИЕ И РОЛЬ КАТТАКУРГОНСКОГО ВОДОХРАНИЛИЩА В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ В ЭПОХУ ГЛОБАЛЬНОГО ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА	14
ХОЛИҚОВ С.С. ОБ МУЪҶИЗАИ АСРОРАНҒЕЗИ ТАБИАТ ВА ПОЙДОРИИ ҶАЁТ ДАР САӢЁРАИ ЗАМИН	20
ABBASOV S. B., MIRZOYEVA I.E. SUV OMBORLARINING LANDSHAFT- EKOLOGIK HOLATGA TA'SIRINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	26
АБДУЛЛОЗОДА Ҳ. САҲМИ ПРЕЗИДЕНТИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН ЭМОМАЛӢ РАҲМОН ОИДИ ҲИФЗИ ПИРЯХҶО	30
АКОБИРОВ Ш. З. ОМӢЗИШИ ЯХБАНДИҶОИ ҚАДИМ ВА ТАӢРИХИ ГЕОЛОГИИ ЗАМИН.....	35
ABDULLAYEVA D.N., SHODIYEVA G.R.GEOEKOLOGIK MADANIYAT PARADIGMASI: ILMIY TALQIN, RIVOJLANISHNING YANGI VEKTORI.....	39
АЛИАҚБАР ҶАЁТЗОДА. ПЕШВОИ МИЛЛАТ–ТАШАББУСКОРИ МАСОИЛИ ОБ ДАР ҶАҲОН.....	44
АБДУРАҲИМОВА М.М., ҲОЧИМАТОВ П.Р., ТӢЙЧИЕВ У.А. ТАӢСИРИ ТАӢЙИРЁБИИ ИҚЛИМ БА ПИРЯХИ ЗАРАФШОН	48
АМИНОВ Х.Н., ТӢРАЕВА М.А. ЛАНДШАФТҶОИ ҶАВЗАИ ДАРЁИ АРЧАМАЙДОН ВА ИҚТИДОРИ КИШОВАРЗИИ ОНҶО ДАР ВОБАСТА БА НАВӢҶОИ ХОКӢ.....	53
АМИНОВ М.Х., КОДИРОВА Н.А. ОБЩАЯ ОЦЕНКА НА СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ЛЕДНИКОВ ТАДЖИКИСТАНА.....	58
AMINOV BEKNZOD VANRAM UGLI. THE IMPACT OF CLIMATE CHANGE ON THE ENVIRONMENT IN KHOREZM REGION AND ITS ECOLOGICAL, SOCIO- ECONOMIC CONSEQUENCES.....	63
АСЛИЯМОИ РАҶАБАЛӢ. ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН ТАШАББУСКОР ВА ПЕШСАФИ ФАӢОЛИ ҲАЛЛИ МАСОИЛИ ЭКОЛОГИИ ЗАМОНИ МУОСИР	68
АХМЕДОВА М.А., САТТОРОВА М.Б. РУШДИ ИҚТИСОДИЁТИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН ДАР ЗАМИНАИ ИСТИФОДАИ САМАРАНОКИ ЗАХИРАҶОИ ОБӢ- ЭНЕРГЕТИКӢ	71